



INSON KAPITALI NAZARIYASINI RIVOJLANISHINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Yuldashyev Odil Maksud Og‘li

TDIU magistranti

Zamonaviy iqtisodiyotda ilm-fan taraqqiyoti, raqamli texnologiyalar va axborotlashgan jamiyatning shakllanishi ishlab chiqarishning an'anaviy omillarini tubdan o'zgartirdi. Ushbu jarayonlar natijasida samaradorlikni oshirishning asosiy manbai sifatida inson kapitali birinchi o'ringa chiqdi. Inson kapitalining poydevori esa bilimli, ko'p qirrali malakaga ega, ijodiy fikrlay oladigan shaxs hisoblanadi. Hozirgi iqtisodiy nazariyada inson va uning intellektual salohiyati markaziy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, XX asrning oltmishinchi yillariga qadar vaziyat butkul boshqacha edi. O'sha davrda inson omilining ijodiy va innovatsion qirradi iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi sifatida tan olinmasdi. Sanoat inqilobi davrida ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasi shiddat bilan yangilanishi jismoniy kapital va uskunalarga ustuvorlik berilishiga olib keldi. Bu esa inson qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini ikkinchi darajali masalaga aylantirib, moddiy resurslar etakchi rol o'ynaydi, degan noto'g'ri tasavvurni keng yoydi. Buning natijasida, uzoq vaqt davomida inson qobiliyatlari ishlab chiqarishning miqdoriy omillaridan biri sifatida qaraldi. Asosiy muammo faqat mexnatni, asosiy va aylanma kapitalga muvaffaqiyatli birlashtirishdan iborat edi¹.

¹ Халикова А.И. Теория человеческого капитала / А.И. Халикова // Глобальные проблемы современности: действительность и прогнозы: материалы докладов Международной научно-практической конференции студентов и аспирантов, 19 декабря 2008 г. В 2-х т. Т. 2. – Казань : Изд-во «Познание» Института экономики, управления и права, 2008. – С. 57.



XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson kapitaliga bo'lgan qarashlar keskin tarzda yangilandi. Iqtisodiy tadqiqotlarda insonning intellektual va kasbiy salohiyatiga e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. Buning asosida bir qator muhim omillar yotardi: birinchidan, jamiyat taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi, ikkinchidan, ushbu bosqichda inson kapitalining mazmunan yangicha ahamiyat kasb etishi. Ijtimoiy va iqtisodiy hayotda yuz bergan tub siljilar mehnat faoliyatini va ishlab chiqarish munosabatlarini yangicha idrok etish uchun zamin hozirladi. Ilmiy tadqiqotda asosiy e'tibor inson kapitali muammolarini o'rganishga qaratildi. Mehnatni iqtisodiy resurs sifatida faollashtirish insonning mehnatda qo'llaniladigan va uning yakuniy natijasini aks ettiradigan qobiliyatlari haqidagi g'oyani o'z ichiga olgan kategoriyani talab qila boshladi. Ushbu funktsiyani bajarish aynan iqtisodiy kategoriya sifatida inson kapitaliga mo'ljallangan rol edi.

Globalashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda yuqori sifatli intellektual salohiyatga ega davlatlar xalqaro maydonda tobora mustahkam mavqe egallayapti. Xususan, bunday mamlakatlar iqtisodiy faoliyatning turli tarmoqlarida oliy malakali kadrlar va jahon bozorida bimalol raqobat qila oladigan mutaxassislar bilan ta'minlangan. Ayni shu holat mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, inson kapitalining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sishning sur'ati hamda samaradorligini to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi. Shu boisdan, ushbu sohadagi ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tobora muhim va dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Inson kapitali nazariyasining ilk asoslari G'arb iqtisodiy tafakkurida XVII asrdayoq paydo bo'la boshlagan va keyingi ikki asr davomida izchil takomillashib borgan. Mazkur konsepsiyaning rivojlanish yo'lida har bir tarixiy davr o'ziga xos ilmiy-nazariy izini qoldirgan: turli iqtisodiy maktablar va oqimlar inson kapitalini talqin etishda o'zlarining metodologik yondashuvlarini ilgari surgan. Iqtisodiyot fanida ushbu konsepsiyaning shakllanishi va takomillashuvi — bu, aslida, insonga



bo'lgan munosabatning, uning xo'jalik hayotidagi mavqeini anglashning uzoq va murakkab evolyusion yo'lidir. Ayni zamonda bu jarayon bilim va nazariy xulosalarning bosqichma-bosqich to'planishini, xilma-xil iqtisodiy maktablar erishgan yutuqlarning o'zaro sintezini hamda ularning tarixiy taraqqiyotini o'zida mujassam etadi.

Inson kapitali nazariyasining ilbizlari klassik siyosiy iqtisod maktabi asoschilari tomonidan yaratilgan ta'limotlarga borib taqaladi. Ingliz iqtisodiy tafakkurining yirik namoyandasi U.Petti klassik siyosiy iqtisodning dastlabki asoschilaridan biri sifatida fan tarixida alohida o'rin tutadi. U ilk bor iqtisodiy muomalaga "tirik harakat qiluvchi inson kuchlari" deb nomlanuvchi yangi tushunchani kiritdi va shu orqali insonning iqtisodiy qiymatini ilmiy jihatdan asoslashga birinchilardan bo'lib urinib ko'rdi.² Inson kapitali g'oyasi keyinchalik klassik siyosiy iqtisod maktabi asoschisi A. Smit tomonidan rivojlantirildi. A. Smit ishlab chiqarish jarayonida ishchining qobiliyati va ko'nikmalari hal qiluvchi o'ringa tegishli deb hisoblagan. Mehnat unumdorligini yuksaltirish, avvalo, ishchining chaqqonligi va kasbiy mahoratiga, undan keyingina u foydalanayotgan asbob-uskuna hamda mexanizmlarning takomillashganlik darajasiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

XIX asrda inson kapitalining mazmuni ifoda etuvchi ikkita yo'nalish shakllandi. Birinchi yo'nalish vakili, klassik siyosiy iqtisodiyot maktabi vakili Dj.S. Mill. Ushbu yondashuv tarafdorlari inson kapitalini asosan insonning egallagan qobiliyatlari va malakalari majmui sifatida talqin etgan, biroq insonning o'zini bevosita bu kategoriya doirasiga kiritishmagan. Ikkinchi ilmiy yo'nalish vakillari — Dj. Mak-Kullox, L. Valras, I. Fisher va N.U. Senior — esa butkul boshqacha pozitsiyani ilgari surgan: ularning nazarida inson kapitali nafaqat shaxsning qobiliyatlarini, balki insonning o'zini ham qamrab oladi. Mazkur yo'nalish namoyandalari insonni ta'minlash va xo'jalik faoliyatida foydalanish mumkin

² Петти У. Экономические и статистические работы / У. Петти. – М. : Соцэкгиз, 1940. – С. 81.



bo'lgan tashqi mahsulot ulushini kapital deb hisoblash o'rniga, insonning o'zini milliy kapitalning tarkibiy qismi sifatida qarash maqsadga muvofiq ekanligini asoslab bergan. Bundan tashqari, ular jismoniy kapital va inson kapitali o'rtasida funksional o'xshashlik mavjudligini ko'rsatib, inson omilini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarning aylanma tezligi moddiy kapitaldagi investitsiyalar aylanma tezligiga mutanosib bo'lishi zarurligini ilmiy jihatdan payg'ambarona ta'kidlagan.

Iqtisodiy fandagi neoklassik yo'nalish maktabi vakili I. Fisher ham kapital ta'rifiga insonni kiritgan. "Yerning unumdorligini yerning o'zidan alohida holda kapital bo'lmagani kabi, "deb yozgan edi." shunday qilib, ko'nikma va mexanika insondan tashqari alohida kapital emas, malakali mexanikning o'zi ham kapital sifatida tasniflanishi kerak³ deb ta'kidlab o'tgan. U ma'lum vaqt davomida daromad keltiradigan hamma narsa kapital deb hisoblagan.

Ingliz iqtisodiy maktabining taniqli vakili N.U. Senior ham insonni kapital kategoriyasi doirasida ko'rib chiqish mumkinligini ilmiy asosda isbotlashga harakat qilgan. Uning qarashlaricha, inson — bu kelajakda ma'lum manfaat va foydalilik kutilgan holda unga sarflangan barcha xarajatlar yig'indisi bilan tenglashtirish mumkin bo'lgan kapital shaklidir. Mazkur masalaning nazariy mohiyatini yanada chuqurroq ochib berishga klassik siyosiy iqtisod yo'nalishining yirik namoyandasi J.B. Sey sezilarli ilmiy hissa qo'shdi. Olimning fikricha, insonning kasbiy salohiyati va amaliy ko'nikmalari mehnat samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib, aynan shu xususiyatlari uni kapital sifatida baholash imkonini beradi. J.B. Sey faqatgina insonning to'plangan, maqsadli ravishda shakllangan qobiliyatlari va malakalarini kapital deb tan olgan. Uning ta'kidlashicha, inson dunyoga kelib, murakkab faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tayyor qobiliyatlar bilan ta'minlanmagan. Bunday qobiliyatlar yosh o'sib, 15-20 yoshga yetilgan sari, uzoq

³ Fisher I. Senses of Capital / I. Fisher // Econ. J., VII (June, 1897). – P. 201-202; Fisher I. The Nature of Capital and Income / I. Fisher. – London : Macmillan & Co., 1927. – P. 51-52.



yillar davomida to'planib, muntazam ta'lim va tarbiyaga sarflangan xarajatlar orqali shakllanadigan kapital sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, klassik iqtisodiy maktab namoyandalari zamonaviy inson kapitali nazariyasining poydevorini yaratishgan. Ularning tasavvurida xilma-xil qobiliyat va fazilatlar sohibi bo'lgan insonlar jamiyat va davlatning bebaho boyligi hisoblangan. Mazkur boylikning qiymati esa ko'proq kasb-hunarning tabiati va mazmuniga bog'liq deb qaralgan. Insonning ishlab chiqaruvchilik salohiyati iqtisodiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi bosh kuch sifatida e'tirof etilgan, kasbiy kamolot esa moddiy-texnik vositalarni yangilashdan ustun turgan.